

**ONA TILI DARSLARIDA MEDIA SAVODXONLIK ELEMENTLARINI
JORIY ETISH IMKONIYATLARI**

Andijon davlat pedagogika instituti

OXUNOV ILXOMJON ABDUNABIYEVICH

Maxsus pedagogika kafedrasi dotsent (PhD)

oxunovilhom75@gmail.com

Pedagogika fakulteti boshlang'ich

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

BAQBERGENOVA DILNURA MAKSUDBEK QIZI

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida media savodxonlik elementlarini joriy etishning pedagogik imkoniyatlari, metodik asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Ona tili fanining mazmuni va imkoniyatlari media savodxonlikni rivojlantirish uchun qulay platforma ekani asoslab beriladi. Xususan, matn ustida ishlash, uslubiy tahlil, nutq madaniyati, publitsistik va badiiy matnlarni qiyoslash jarayonida media materiallardan samarali foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Media savodxonlik elementlarini ona tili darslariga tizimli ravishda joriy etish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, mantiqiy tafakkuri va axborot madaniyatini rivojlantirish masalalari tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: Media savodxonlik, ona tili ta'limi, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, media matn, tahlil, pedagogik texnologiya, multi-modal yondashuv.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические возможности, методические основы и практические механизмы внедрения элементов медиаграмотности в уроки родного языка. Утверждается, что содержание и возможности изучения родного языка представляют собой удобную платформу для развития медиаграмотности. В частности, показаны способы эффективного использования медиаматериалов в процессе работы с текстом, методического анализа, речевой культуры и сравнения журналистских и художественных текстов. Систематическое внедрение элементов медиаграмотности в уроки родного языка объясняет вопросы развития у учащихся речевой компетенции, логического мышления и информационной культуры.

Ключевые слова: медиаграмотность, обучение родному языку, педагогические технологии, мультимодальный подход.

Abstract: This article analyzes the pedagogical possibilities, methodological foundations and practical mechanisms of introducing elements of media literacy in native language lessons. It is argued that the content and possibilities of native language science are a convenient platform for the development of media literacy. In particular,

ways of effectively using media materials in the process of working on the text, methodological analysis, speech culture, and comparison of journalistic and artistic texts are shown. The systematic introduction of elements of media literacy into native language lessons explains the issues of developing students' speech competence, logical thinking and information culture.

Keywords: media literacy, native language education, information culture, critical thinking, media text, analysis, pedagogical technology, multi-modal approach.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda axborot oqimi mislsiz darajada kengaydi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va onlayn nashrlar yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bunday sharoitda o'quvchilarda axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili fani o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, ularning tafakkurini, mantiqiy fikrlashini va matn bilan ishlash malakasini ham shakllantiradi. Shu bois aynan ona tili darslarida media savodxonlik elementlarini joriy etish uchun qulay pedagogik maydon hisoblanadi.

Media savodxonlik - bu insonning turli axborot manbalarini ongli ravishda qabul qilishi, ularni tahlil qilishi, baholashi va zarur bo'lsa, mustaqil ravishda media matn yarata olishi bilan bog'liq muhim ko'nikmalar majmuasidir. Bugungi axborotga boy jamiyatda har bir shaxs nafaqat ma'lumot iste'molchisi, balki faol fikrlovchi subyekt bo'lishi zarur.

Media savodxonlik insonni ommaviy axborot vositalarida berilayotgan xabarlarning asl mohiyatini anglashga undaydi. Ba'zan axborot bir tomonlama yoritilishi, ma'lum g'oya yoki qarashlarni targ'ib qilishi mumkin. Shunday vaziyatda media savodxon shaxs xabarning ortida qanday maqsad yotganini, u kim tomonidan va nima sababdan tarqatilayotganini tahlil qila oladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi kimligi, ularning moliyaviy manbalari qandayligi kabi omillar ham axborot mazmuniga ta'sir ko'rsatishini tushunadi.

Boshqacha aytganda, media savodxonlik - bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini media orqali uzatilayotgan xabar va belgilarni anglash jarayonida qo'llay olish qobiliyatidir. Men media savodxonlikni zamonaviy fuqaroning ajralmas fazilati deb hisoblayman. Chunki u insonni axborot oqimida adashmaslikka, mustaqil xulosa chiqarishga va jamiyat hayotida faol hamda ma'suliyatli ishtirok etishga yordam beradi.

Ona tili va o'qish darslarini mediasavodxonlik elementlari bilan boyitish ayniqsa, boshlang'ich sinflardan o'qilgan yo'lga qo'yilishi zarur, chunki aynan shu bosqichda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va ijodkorlikni rivojlantirish, shuningdek, axborot madaniyatini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlikni dars

jarayoniga integratsiya qilish orqali bolalarda nafaqat matnni o‘qish va tushunish, balki uni tahlil qilish, baholash va mazmuniga ongli munosabat bildirish malakalari rivojlanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar qayd etishicha, bolalar ana shu metodika yordamida ijodiy yondashuv, tanqidiy axborot tanlash va yangiliklarni to‘g‘ri xulosa qilish malakalarini egallaydi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning psixologik va kognitiv xususiyatlari media savodxonlikni o‘qitish metodikasini belgilaydi. Bu yoshdagi bolalar hali mavhum tafakkurni to‘liq shakllantirib ulgurmagan, shuning uchun aniq misollar va ko‘rgazmali materiallar orqali o‘rgatish samaraliroq bo‘ladi. Ularning diqqat barqarorligi 7-15 daqiqagacha davom etadi. Shu bois dars faoliyatini qiziqarli va turli xil metodlar orqali tushuntirish lozim. Har xil o‘yinlar, topshiriqlar qilish orqali va jamiyat hayotida faol hamda mas‘uliyatli ishtirok etishga yordam beradi.

Ona tili va o‘qish darslari o‘z mohiyatiga ko‘ra bir-biriga tabiiy tarzda yaqin fanlar bo‘lib, integratsiyalash orqali lug‘aviy boylikni shakllantirish, ifodali o‘qish, fikrni to‘g‘ri bayon etish, asarlarni tanqidiy tahlil qilish kabi malakalar mustahkamlanadi. Zamonaviy bolalar ko‘proq smartfon, planshet, kompyuter kabi raqamli qurilmalar orqali ma‘lumot olayotgani sir emas. Shvetsiyalik tadqiqotchi C.Johansson mediasavodxonlikni “o‘quvchining axborot manbalarini tahlil qilishi, asoslilikini tekshirishi, manipulyatsiyaga uchmaslikni o‘rganishi va o‘z fikrini mustaqil ifodalay olishi” deb ta‘riflaydi.

Ona tili va o‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida tanqidiy savollar berish, ko‘p manbalik tahlil yuritish, virtual resurslar bilan ishlashda netiket qoidalariga rioya qilish kabi usullar yordamida mediasavodxonlikni rivojlantirish mumkin. Mediasavodxonlikni o‘rgatish samarali natija beradi. Bolalarning hissiy sohasining faolligi yuqori bo‘lganligi sababli, emotsional jihatdan yorqin va qiziqarli materiallardan foydalanish muhimdir. 7 va 11 yosh oralig‘idagi bolalarning xotirasida ko‘rish va eshitish orqali olingan ma‘lumotlar yaxshiroq saqlanadi, shuning uchun multi-modal yondashuv qo‘llanilishi lozim.

Multi-modal yondashuv – ma‘lumotni yetkazish yoki qabul qilishda bir vaqtning o‘zida bir nechta usul (modalite: matn, tasvir, audio, video) dan foydalanishdir. Bu usul ta‘limda tushunishni oshirish, xavfsizlikni ta‘minlash va axborotni chuqurroq anglashga yordam beradi. Interaktiv metodlar yordamida mazmuni yanada samarali yetkazish uchun xizmat qiladi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘lim sifatini oshirish borasida shunday fikr bildiradi: “Yoshlar nafaqat bilimli, balki keng dunyoqarashli, tanqidiy fikrlay oladigan va axborot oqimida to‘g‘ri yo‘l topa biladigan bo‘lishi kerak. Bu g‘oya bevosita media savodxonlik tushunchasi bilan bog‘liqdir. Chunki bugungi kunda axborot manbalari ko‘paygan bir sharoitda har qanday ma‘lumotni tahlil qilish, uning ishonchliligini aniqlash muhim masaladir.”

Ona tili darslarida o‘quvchilar matn bilan ishlashni, fikrni tahlil qilishni, asosiy g‘oyani ajratishni, dalillarni baholashni o‘rganadi. Bu ko‘nikmalar media savodxonlikning asosini tashkil etadi. Masalan, gazeta maqolasi yoki internet xabarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar matnning maqsadini, muallif pozitsiyasini va qo‘llangan til vositalarini aniqlashi mumkin. Bu esa ularda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Media savodxonlik faqat tayyor axborotni tahlil qilish bilan cheklanmaydi. Ona tili darslarida o‘quvchilarga mustaqil ravishda yangilik matni yozish, o‘quvchilar bir birlari bilan intervyu qilish kabi topshiriqlar berish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantiradi, fikrni aniq va lo‘nda ifodalash ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Eng muhimi, ular axborotni mas‘uliyat bilan yetkazish zarurligini anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida media savodxonlik elementlarini joriy etish zamonaviy ta‘limning muhim va zarur yo‘nalishlaridan biridir. Chunki ona tili fani o‘quvchining nutqiy savodxonligini, tafakkurini va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Media savodxonlik esa aynan shu ko‘nikmalarni yanada mustahkamlaydi va ularni amaliy hayot bilan bog‘laydi. Ona tili va media savodxonlik uyg‘unligi o‘quvchining shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Natijada u axborot oqimida adashmaydigan, mustaqil xulosa chiqaradigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda fikr yurita oladigan ongli hamda faol fuqaro bo‘lib shakllanadi. Demak, ona tili darslarida media savodxonlikni tizimli ravishda joriy etish ta‘lim samaradorligini oshirish bilan birga, barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh .M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz . Toshkent . (2017) .
2. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." Nashrlar (2024): 38-41.
3. Bozorboyevna, N.N. (2023). Boshlang‘ich ta‘lim oqituvchilarini o‘z ustida ishlashning zamonaviy yo‘llari.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. I.Azimova [va boshq]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021.-128b
5. Nurmatov Z.Sh. Media savodxonlik va axborot madaniyati o‘quv – uslubiy majmua. Termiz – 2023